

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI

**XORIJIY DAVLATLARDA TA’LIM OLGANLIK TO‘G‘RISIDAGI HUJJATLARNI TAN  
OLISH VA NOSTRIFIKATSIYALASH (EKVIVALENTLIGINI QAYD ETISH) TARTIBI  
TO‘G‘RISIDAGI NIZOMGA O‘ZGARTIRISH KIRITISH HAQIDA (O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI PREZIDENTINING “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQARO  
AVIATSIYASINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI  
TO‘G‘RISIDA” 2018-YIL 27-NOYABRDAGI PF-5584-SON FARMONI)**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining fuqaro aviatsiyasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 27-noyabrdagi PF-5584-son **Farmonini** bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 25-iyuldagi 283-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2000-y., 7-son, 42-modda) bilan tasdiqlangan Xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) tartibi to‘g‘risidagi nizomning **13-bandida**:

**to‘rtinchi xatboshi** chiqarib tashlansin;

**beshinchi-oltinchi xatboshilar** tegishli ravishda to‘rtinchi-beshinchi xatboshilar deb hisoblansin.

2. Vazirliklar va idoralar o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi transport vaziri A.J. Ramatov hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduxakimov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 29-mart,  
261-son

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.03.2019-y., 09/19/261/2854-son)*